



# International Journal for Innovative Engineering and Management Research

A Peer Reviewed Open Access International Journal

www.ijiemr.org

## COPY RIGHT



**2022 IJIEMR.** Personal use of this material is permitted. Permission from IJIEMR must be obtained for all other uses, in any current or future media, including reprinting/republishing this material for advertising or promotional purposes, creating new collective works, for resale or redistribution to servers or lists, or reuse of any copyrighted component of this work in other works. No Reprint should be done to this paper, all copy right is authenticated to Paper Authors

IJIEMR Transactions, online available on 15th Jan 2022. Link

<http://www.ijiemr.org/downloads.php?vol=Volume-11&issue=ISSUE-01>

**DOI: 10.48047/IJIEMR/V11/I01/10**

Title SHASHMAQOM SABOQLARI: "NAVO" MAQOMI XUSUSIDA

Volume 11, Issue 01, Pages: 55-58

Paper Authors

**Muyassarxon Achildiyeva, Azimjon Xojimamatov, Farangiz Ikromova.**



USE THIS BARCODE TO ACCESS YOUR ONLINE PAPER

To Secure Your Paper As Per **UGC Guidelines** We Are Providing A Electronic Bar Code



# International Journal for Innovative Engineering and Management Research

A Peer Reviewed Open Access International Journal

www.ijiemr.org

## SHASHMAQOM SABOQLARI: "NAVO" MAQOMI XUSUSIDA

Muyassarxon Achildiyeva,

Farg'ona davlat universiteti, San'atshunoslik fakulteti, Musiqa kafedrasи o'qituvchisi

[muyassarxon0088@gmail.com](mailto:muyassarxon0088@gmail.com)

Azimjon Xojimamatov,

Farg'ona davlat universiteti, San'atshunoslik fakulteti, Musiqa kafedrasи o'qituvchisi

[azimjonxojimamatov@gmail.com](mailto:azimjonxojimamatov@gmail.com)

Farangiz Ikromova,

Farg'ona davlat universiteti, San'atshunoslik fakulteti, Musiqiy ta'lif yo'naliishi 2- bosqich talabasi

[feya.01.m@gmail.com](mailto:feya.01.m@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqlada og'zaki an'anadagi kasbiy musiqaning eng oliy qomusiy janr maqom borasida atroflicha ma'lumot beriladi. Shuningdek, Buxoro Shashmaqomi tarkibotiga kiruvchi "Navo" maqomi hamda uning ijrochilik uslublari xususida so'z boradi.

**Kalit so'zi:** Maqom, Shashmaqom, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, Tasnifi Navo, Tarje' Navo, Saraxbori Navo, Xusayniy Navo, Ufori Navo, ashula, kuy, nag'ma, usul.

"Mug'anniy, kelu chert turkono soz,

Maqomi "Navo", yo'qsa "Turki hijoz".

Navoiyning ash'oridan necha bayt,

Mening hasbi holim topib turkiy ayt"

*Alisher Navoiy*

Og'zaki an'anadagi mumtoz musiqa san'atining asosini tashkil etuvchi Shashmaqom ma'naviy kamolotga, ruhan poklanishning muhim mezonlaridan biri. Maqom o'z navbatida inson ruhiyatiga uning qalb parametrlariga o'ziga xos ko'tarinkilik hamda shodlik hissini uyg'otishi tabiiy. So'zning musiqa bilan hamnafaslikda ijroviy talqin namunalari maqomotda o'z ahamiyatini kasb etadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'zbek-tojik xalqlarining bebafo noyob durdonasi - Buxoro Shashmaqomi yoki keyingi o'rnlarda Shashmaqom hozirgi o'zbek maqomshunosligida "O'zbek Shashmaqomi" degan atama iste'mol

maydoniga kirib ulgurdi. Shu o'rinda maqom ijrochiligi san'atida ustoz-san'atkorlarning, hofiz-sozandalarning ijro uslublari o'ziga xos rango-rangdir. Maqom targ'ibotchilari bo'lmish ulug' hofizlarning ijodi ezgulikka qaratilgani bois hamisha e'tiborga e'tirofga munosib. Ustoz san'atkorlar ijodiy merosini o'rganib, uni yanada keng targ'ib etish, yosh avlod qalbiga singdirish mas'uliyatli va sharaflı vazifa.

"Navo" maqomi Shashmaqom tarkibidagi uchinchi maqom. Uning tarixi uzoq o'timish zamondarga borib taqaladi. "Navo" atamasi arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida "yoqimli kuy, hang" degan ma'noni



# International Journal for Innovative Engineering and Management Research

A Peer Reviewed Open Access International Journal

[www.ijiemr.org](http://www.ijiemr.org)

anglatadi. Buyuk bobokalonimiz, so‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy aynan shu atamaga monand ravishda “chekuvchi”, “kuylovchi” ma’nolarini anglatuvchi “Navoiy” (“Navo”) taxallusida ijod qilgan. O‘tmish musiqa risolalarida Navo maqomi “nag‘mai Dovudiy”, ya’ni Dovud payg‘ambar kuyi deb atalgan. Umuman olganda, Navo maqomi yirik maqomlar majmuasi. Uning asosida Farg‘ona-Toshkent, Tojikiston vohalarida mashhur bo‘lib ketgan va keng tarqalgan Bayot ijrolari va turkumlari yaratilgan.

“Navo” maqomi cholg‘u va ashula bo‘limlaridan iborat. Cholg‘u qismi: Tasnifi Navo, Tarje’ Navo, Garduni Navo, Nag‘mai Orazi Navo, Muxammasi Navo, Muxammasi Bayot, Muxammasi Xusayniy, Saqili Navo, “Tasnif” maqomining bosh kuyi, “Tarje” qaytarma ohangdan iborat kuy. “Gardun”, “Muxammas”, “Saqil” doira usullari. “Nag‘mai Orazi Navo”, “Xusayniy” bastakorning taxalluslariga nisbatan berilgan<sup>2</sup> atama. “Navo”ning cholg‘u yo‘llari ohanglarga boy, tez ta’sir etadigan kuylardan tuzilgan, usullar o‘zgarsada, birincketin keladi va bir-biriga mantiqan bog‘liq. Navo maqomi asosida qator cholg‘u kuylari, hatto sunray navo yo‘llari yaratilgan.<sup>1</sup>

“Navo” maqomining ashula bo‘limi birinchi guruh sho‘balari bo‘lmish Saraxbori Navo, Talqini Bayot, Nasr sho‘balari - Nasri Bayot, Orazi Navo, Xusayniy Navo, shuningdek Ufari Navodan iborat.

**Savti Navo.** U “Navo” ohanglari ta’sirida yuzaga kelgan. Savti Navo doira usulida ijro etilgani uchun “Chapandozi navo” deb nomlangan. Ustoz Yunus Rajabiy

“Savti” doira usulini qo‘sib, kuy yo‘lining barcha harakatlarini saqlab qolgan holda ashula yo‘lini yuzaga keltirgan. Natijada Savti Navo to‘ldirilib, uning olti qismli shakli “Chapandozi Savti Navo” yuzga kelgan. U Savti Navoning bosh ashula yo‘li ijro etilgandan so‘ng ijro etiladi. Chapandozi Savti Navoning mashhurligi shundaki, shu asosda barcha ijro etadigan Avji Turk yuzaga kelgan.

M. M. ♩ = 78  
САВТИ НАВО

Па-ри-шон хв-ли-о-льи о-ху  
в-ф-он эт-ди-гим-да-ур,  
па-ри-шон ўп-ди-ғим хв-ли-о-ху  
д-и-ғим-да-ур.

**Saraxbori Navo.** Har bir maqomning ashula bo‘limi “Saraxbor” deb ataladi. “Sar”-tojikcha “bosh, boshlanish”, “axbor”- arabcha “xabar” ma’noni anglatadi. Ular Shashmaqomda turli maqom nomi bilan qo‘silib Saraxbori Buzruk, Saraxbori Rost, Saraxbori Navo, Saraxbori Dugoh, Saraxbori Segoh, Saraxbori Iroq deb nomlanadi. Saraxborlarning takt-ritm o‘lchovi 2/4(ikki chorak) bo‘lib, doira usuli ikki xil ijro etiladi.

<sup>1</sup> I.Rajabov. “Maqom asoslari”. Toshkent 1992 y. 59-60 betlar.

• <sup>2</sup> Yunus Rajabiy. “Shashmaqom”. III-kitob. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent 1966-1975 yil.



# International Journal for Innovative Engineering and Management Research

A Peer Reviewed Open Access International Journal

[www.ijiemr.org](http://www.ijiemr.org)

1.  
Сен . тек я . хон . да  
күз . ло . ри вя . ни ба . ло . кв . ни?  
Мен . тек в . ни? ба . ло . си . ба .  
лар . муб . то . ло . (а . ни?) 0

M. M. ♩ = 72  
МУГУЛЧАИ НАВО  
1.  
Мас . ти жо . ми васа .  
тиб вв . вел ме . ни зор ай . ла . динг .  
дни хиж . рон ху . мо . ри га . гириф .  
днит . Сендину ми . дим бу . зр . мас эр . дикини .  
2.  
3.

Buzruk, Rost, Navo, Dugoh maqomining Saraxborlari doira usulining birinchi, Segoh va Iroq maqomining ikkinchi turi jo'rligida ijro etiladi. Saroxborlarning doira usul sur'ati vazmin, ularni ijro etuvchi hofiz keng ovoz diapazoniga ega nafasi uzun hamda charchab qolmaydigan bo'lishi kerak. Saraxborlarda Shashmaqom sho'balaridagi kabi bir nechta namudlar uchraydi. Sarahbori Buzrukda Namudi Uzzol va Namudi Muxayyari Chorgoh, Saraxbori Dugohda Zebo pari va Namudi Muxayyari Chorgoh uchraydi. Saraxborlarning ijrosi va ularni o'rganish og'ir, shu bois ustozlar shogirdlariga maqomlarning boshqa sho'balarini o'rgatib, keyin Saraxborlarni o'rgatishga o'tganlar.

**Mo'gulchai Navo.** Navo maqomining ikkinchi guruhiga kirgan mashhur sho'balaridan biri. Talqinchcha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar shahobchalaridan iborat, turkum sifatida ijro etiladi.

**Mustahzodi Navo.** Navo maqomining ikkinchi guruh sho'balaridan yana biri, unda Talqinchcha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar qismlari mavjud. "Mustahzod" she'r vazni, arabchada "orttirilgan" degan ma'noni anglatadi.

M. M. ♩ = 128  
M. M. ♩ = 220  
МУСТАХЗОДИ НАВО  
1.  
Жо . но, ка . ра . шиг . бир .  
ла . ша . ра . ан . но . за . риг .  
бор . да . мен . дин . ха . ба . риг .  
бор . и . ант . да . не . чи . во .  
ло . ю . ша . до . ба . ши . ни .  
бор . и . ра . кып . фан . за . ла . риг .  
2.  
3.

<sup>3</sup> Yunus Rajabiy. "Shashmaqom". III-kitob. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent 1966-1975 yil.



# International Journal for Innovative Engineering and Management Research

A Peer Reviewed Open Access International Journal

www.ijiemr.org

Mustahzodi Navo borasida alohida to‘xtalish joiz. Uning kuy yo‘lida ham she’r shaklidagi kabi orttirilgan kuy bo‘lagi mavjud bo‘lib, har bir kuy jumlesi ketidan uni yakunlab boruvchi kichik bir kuy bo‘lagi qo‘shiladi.

Mustahzodi Navoning birinchi xatidaromad, ikkinchi xati-miyonxat, uchinchi va to‘rtinchi xatlari-Bayot namudi, beshinchi xati-Navo namudi, oltinchi xati-tushurim qismlaridan iborat. Mustahzodi Navoning bosh yo‘li ijro etilgandan so‘ng uning shahobchalar-Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufarisi ijro etiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Navo maqomi o‘zining shaklan va obraz tomonidan o‘ziga xos xususiyatlar hamda uning tarkibiga kiruvchi Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarining ayrim namunalari mavjudligi, ikkinchi guruh sho‘balarining sho‘ba shakli nazariyasidan kelib chiqib biroz kengaygan holda yuzaga kelishini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, ohang, ladparda masalalari hozirgi kundagi o‘zbek musiqashunosligida o‘rganilishi lozim bo‘lgan asosiy masalalardandir.

## Adabiyotlar:

- Исҳоқ Ражабов. Мақомлар. “САНЪАТ” нашриёти. Тошкент: 2006 й.
- Исҳоқ Ражабов. Мақом асослари. Тошкент: 1992 й.
- Исҳоқ Ражабов. Мақомлар масаласига доир. Ўз ДАВЛАТ БАДИЙ АДАБИЁТ НАШРИЁТИ. Тошкент: 1963 й.
- Отаназар Матёқубов. Мақомот. “МУСИҚА” нашриёти. Тошкент: 2004 й.
- Шашмақом сабоқлари. Тузувчилар: О.Матёқубов,

Б.Ашурев, К.Ўринбоев. Тошкент: 2007 й.

- Ўзбек халқ мусиқаси. I-V томлар. Бухоро мақомлари. Тўпловчи ва нотага олувчи Юнус Ражабий. И.А.Акбаров таҳрири остида. – Тошкент: Давлат бадиий адабиётлар нашриёти, 1955-1959 йй.
- Шашмақом. Ёзиб олувчи Юнус Ражабий. I-VI китоблар. Тошкент:. Faafur Fu'lom nomidagi Adabiёт va san'yat нашриёти, - Тошкент: 1966-1975 йй.
- О.Матёқубов. Мақомот. “Мусиқа” нашриёти. Тошкент: 2004 й.
- Равшан Юнусов. Ўзбек халқ мусиқа ижоди. (Илмий-услубий тавсиялар). 2-қисм. Тошкент: 2000 й.